

O`KTAM USMONOV IJODINING O`ZIGA XOSLIGI

*Zarpullayeva Xadichabonu Abdug`ani qizi**Jizzax davlat pedagogika universitetining o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi
2-kurs magistranti**Mirzacho`l tumani Ahmad Yassaviy nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan
18-IDUM da ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

Annotatsiya. Hozirgi kunda insonning ichki dunyosi, ruhiyati, borlig`i va uning badiiy, falsafiy-diniy tahlili kabi masalalar jahon adabiyotshunosligidagi dolzarb muammolardan biridir. O`ktam Usmonov ijodida ham asr vabosi sanalmish giyohvandlik, ichkilikbozlik, poraxo`rlik, ikkiyuzlamachilik, yolg`onchilik kabi illatlar aks ettirilgan. Maqolada adib asarlarini faqat mafkuraviy jihatdan emas, balki bir asrlik yo`lni bosib o`tgan hikoyachilik janrining yorqin misoli sifatida yangi nigoh, yangi nuqtayi nazar bilan tahlil va talqin qilish, yozuvchi ijodidagi turli ramzlar, tasvir uslublari, insonning falsafiy-ruhiy holatlarini bugungi kun nigohi bilan o`rganishni asosiy maqsadimizga aylantirdik.

Kalit so`zlar: Ruhiyat, o`zbek hikoyachiligi, romantik tafakkur, realistik tafakkur, ramz, uslub, xat, individuallik.

УНИКАЛЬНОСТЬ ТВОРЧЕСТВА ОКТАМА УСМАНОВА

Зарпуллаева Хадичабону Абдугани кызы, 1 курс магистра узбекского языка и литературы Джизакского государственного педагогического педагогического института. Преподает литературу на родном языке в 18 ИДУМ имени Ахмеда Ясави Мирзачульского района, специализирующейся на иностранных языках

Аннотация. Сегодня такие вопросы, как внутренний мир, психика, бытие человека и его художественный, философский и религиозный анализ, являются одними из самых актуальных в мировой литературе. В творчестве Уктама Усманова нашли отражение и пороки века, такие как наркомания, алкоголизм, взяточничество, лицемерие и ложь. В статье представлен новый взгляд, анализ и интерпретация произведений автора не только идейно, но и как яркий пример многовекового жанра повествования, главной целью которого мы сделали обучение глазами.

Ключевые слова: Психология, узбекское сказительство, романтическое мышление, реалистическое мышление, символ, стиль, письмо, индивидуальность.

THE UNIQUENESS OF OKTAM USMANOV'S WORK

Zarpullayeva Khadichabonu Abdugani qizi, 1st year master's student of Uzbek language and literature of Jizzakh State Pedagogical Institute. She teaches literature in her native language at 18 IDUM named after Ahmad Yassavi of Mirzachul district, which specializes in foreign languages

Annotation. Today, issues such as the inner world, psyche, existence of man and his artistic, philosophical and religious analysis are one of the most pressing issues in world literature. Uktam Usmanov's work also reflects the evils of the century, such as drug addiction, alcoholism, bribery, hypocrisy and lies. The article analyzes and interprets the works of the writer not only ideologically, but also as a vivid example of a century-old genre of storytelling. We have made learning with our eyes our main goal.

Keywords: Psychology, Uzbek storytelling, romantic thinking, realistic thinking! symbol, style, letter, individuality.

Kirish. Ishda ko'zda tutilgan asosiy maqsad XX asrning 60-70-yillarida yashab ijod qilgan O'ktam Usmonov hikoyalarida o'z aksini topayotgan inson hayoti, obraz ichki kechinmalari, qahramon obrazida ijtimoiy davr masalasi hamda hikoyalarda ma'naviy-axloqiy masalalar talqini, yozuvchining ijodiy o'ziga xosligi, yozuvchi uslubi, shaxs badiiy talqinining g'oyaviy-estetik mohiyatini o'rganish va uning ilmiy-nazariy asoslarini yoritishdan iborat.

Asosiy qism. O'ktam Usmonov hikoyalarining o'zaro - ruhan yaqinligi ma'naviy-axloqiy masalalar ustuvorligi bilan belgilanib, insonni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo'sini bilan xarakterlanadi. Ularda insonni badiiy tushunish hamda tushuntirishda ikki yo'nalish ko'proq ko'zga tashlanadi. Birinchidan, xalqimizning milliy mustaqillikka erishgungacha kechgan hayotidagi erkka tashnalik kayfiyati hamda milliy istiqlol arafasidagi odamlarning ruhiy holatlari va jamiyat hayotini yoritishga harakat qilinadi. Ikkinchidan, ezgulik, jaholat tantanasi uchun g'ov bo'lgan ma'naviy-axloqiy illatlarni fosh etishga intilish, haqiqatning tantana qilishiga ishonmagan, ko'ngli mudroq odamlar ruhiyatini jamiyat psixologiyasi bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish va ana shunday behard kimsalar amal qiladigan falsafa mohiyatini ramzlar tilida ochib berish hamda shaxsning parchalanish sabablarini badiiy-falsafiy o'rganish alohida tamoyilni tashkil etadi.

Har bir kimsaning ruhi, qalbi bo'lgani singari har bir asarning ham o'ziga xos ma'naviy dunyosi bo'ladi. Bu esa ijodkorlarning o'ziga xos va betakror ma'naviy-intellektual salohiyatidan vujudga keladi. O'ktam Usmonov hikoyalarida kuzatilganidek har bir ijodkor ramzlarga burkangan badiiy nigohi bilan ham alohida

xususiyatlarga ega. Zero, adibning har bir hikoyasida o`ziga xos ma`naviy-axloqiy masalalar yetakchilik qiladi.

O`ktam Usmonov o`zidan oldin hikoyachilik janrida ijod qilgan hamda yuksak cho`qqilarni egallagan adiblar ijodi bilan ya`qindan tanishib chiqqan, ularning asarlaridan nimalarnidir o`qib o`rgangan, ijodiy o`zlashtirgan. Bu o`rganish uning hayot hodisalarini akslantirishi, inson obrazini gavdalandirishiga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

“San`atkor voqelikdan tanlab olgan unsurlarni badiiy til yordamida xayoloti bilan uyg`unlashtiruvchi va u yaratgan badiiy dunyoning tugal bo`lishini ta`minlovchi vosita – uslub deb ataladi” deydi Nobel mukofoti sovrindori, fransuz adibi Albert Kamyu.¹

O`ktam Usmonov ijodiy uslubida ijtimoiy davr masalasini, urushdan keyingi yillarni, insonlar xarakterini ta`sirli chizgilarda tasvirlab berishi orqali kitobxonlar qalbidan joy egallagan.

O`ktam Usmonov o`z asarining boshiga, ilk jumlasiga juda qattiq e`tibor qiladi, chunki uning asari shu so`zlar bilan boshlanadi va o`quvchi qalbiga sehrli kuy misoli oqib kiradi. Hattoki asar boshlanishidan avval keltirilgan epigraflarni asar mazmunidan uzoqlashmagan holda, million jumlalar orasidan saralab, tanlab yozadi.

Bunga misol tariqasida **“Yana kelgan baxt”** hikoyasida keltirilgan **Firdavsiy** qalamiga mansub **“Har kim o`z uyida misoli podshoh”**, **“Ayol”** hikoyasida **Abdulla Oripov** ijodiga tegishli:

**Sevgidan yetimu umrdan yarim,
Qurigan ko`ksida yolg`iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do`stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak,-**
misralarida yaqqol ko`ramiz.

Adib asar boshlanishini o`zgacha bir talqinda ochib beradi-ki, uni o`qigan har bir kitobxonda asarni o`qishga bo`lgan qiziqishining ortib borishini his etamiz.

Yozuvchi bundan tashqari, asar yakunini ham mukammal tarzda g`oyaning tugallanishi, so`nggi nuqtasi sifatida tasavvur hosil qiladi.

“Ona tabiat ertangi kurash oldidan miriqib dam olishga chog`langan pahlavonlarday og`ir uyquga cho`mgandi”.(oxiri)

O`ktam Usmonov epik asarlarning ramka unsurlari sirasiga kiradigan asar sarlavhasiga alohida e`tibor beradi. Sarlavha tanlashda asar mazmuni ustida bosh qotirib, uning qanday ma`no anglatayotganidan emas, aynan shu sarlavha asarda qanday darajada rol o`ynaganiga qarab yondoshar edi. Masalan, adibning **“Maktab derazasi”** hikoyasiga nazar tashlar ekanmiz, unda ham urushdan keyingi yillar tasviri,

¹ “Jahon adabiyoti” jurnali. 1997-yil, 1-son.- B.192.

hozirgi zamon hamda urushdan keyingi yillarning taqqoslanganini, shukronalikni, qanoat qilishni, to`g`ri qaror chiqarishni, davlat mulkiga ziyon yetkazishni qoralagan tasvirlarni, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatni, to`g`ri so`zlikni, har qanday sharoitda ham og`ir-bosiq bo`lishga guvoh bo`la turib, asarga mazmun jihatdan emas, ayni shu maktab derazasi ortida qanchalik ko`p ma`no borligi jihatidan shunday nom berilganini ko`rishimiz mumkin. Undan tashqari O`ktam Usmonov deraza orqali ma`naviy-axloqiy fazilatlarini, milliyligimizni, obrazlar xarakteridan joy olgan illatlarni ochib berganligida ham unda ijodiy o`ziga xoslik borligini bilamiz.

O`ktam Usmonov asarlarida keltirilgan qahramonlarni o`z farzandidek qabul qiladi, **“Jala”**, **“Kuzatish”**, **“Charxchi”**, **“Tunda uvlagan it”**, **“Qaldirg`och”**, **“Bolalik”** hikoyalari obrazlari o`rniga o`zini qo`yib ko`radi, ularga nisbatan o`z g`amxo`rligini, achinish hissini, ruhiy kechinmalarini namoyon qila oladi.

Yozuvchi millat ruhini, qahramonlar xarakterini ochib berish uchun **“Yana kelgan baxt”** hikoyasida to`y tasviridan, yor-yorlardan unumli foydalangan. Boshqa ko`pgina hikoyalarida esa qahramonning o`tmish voqealarini yodga olishi, ma`lum bir timsollar, ramzlar yoritib bergan.

O`ktam Usmonov salbiy va ijobiy qahramonlarni yaratarkan, ular o`rtasida jismonan emas, ruhan bo`ladigan mashaqqatli janglarni to`laqonli ta`sirli bo`yoqlarda aks ettiradi. Ijodkor o`z “yaxshi ko`rganlari”ning ham, “yomon ko`rganlari”ning ham qiyofasini yaratadi. Bosh qahramonning xarakteri, ma`naviy dunyosi, shubhasiz, boshqa qahramonlarniki kabi voqealar rivoji bilan ochila boradi.

O`ktam Usmonov qahramonlarning o`z boshlariga tushgan ko`rgiliklari, qalb kechinmalarini ichki monolog yordamida yuzaga chiqara olgan. Qahramonning ichki nutqi ulkan vazifa bajarishini anglagan yozuvchi hikoyalarida hech kimga aytilmagan so`zlarni, dardlarini o`quvchiga ma`na shunday tarzda yetkazib beradi. Masalan, adibning **“Qo`shni qiz”** hikoyasida keltirgan:

“Oynisa changal qo`ra orqasida turib menga nimadir bir muhim gap aytmoqchi edi. Qiziq, nima demoqchi edi u o`shanda? Nima demoqchi edi? Hamon bu menga sir...” Hozir Oqtoshga qarab mashinani guvillatib haydab borardimu, qancha-qancha gaplar odamning ichida aytilmay qolib ketishini o`ylardim. O`sha sirlarning bo`lgani ham ma`qul! Yoshligingda ham, qariganingda ham “nima ekan o`sha?” degan qiziqish, zavq-hayajon bilan yashaysan. Nimagadir intilasan. Shunday intilish bor ekan, nimanidir topasan, nimanidir yo`qotasan. Sirsiz, armonsiz umr odamni qaritib qo`yadi. Sir, ushalmagan orzu hamisha umid bilan yashashga o`rgatadi..., jumllarini qahramon tomonidan keltirishi orqali hikoyaning ta`sirli yakunlanishiga, obraz ruhiyatini ochib berishga ham erishgan.

O`ktam Usmonov peyzaj-tabiati tasvirida, shahar, qishloq ko`rinishlarida aslo yanglishmaydi. Mahorat bilan tasvir chiza olgan adibning hikoyalarini o`qir ekanmiz,

xuddi o`sha manzaraga tushib qolgandek bo`lamiz. Go`yoki kitob o`qigandek emas, film ichiga kirgandek tutamiz o`zimizni.

Endigina kurtak chiqara boshlagan yakkam-dukkan daraxtlar shabada epkinida mayin chayqalib, zilziladan keyin huvillab qolgan, devorlari darz ketgan derazasiz uylarning tomiga “tiq-tiq” uriladi, ko`ngilni ezadi.

Buldozer kuragi tegib yonboshlab qolgan qari tol daraxti ildizi ochilib yotsa ham ichidan ko`kara boshlabdi. Tepa shoxiga quruvchilar proyektor o`rnatishgan ekan, hozir atrofni sutday yoritib, ko`zni qamashtiradi. Buldozerlar biri olib, biri qo`yib vag`illaydi. Orqaga tisariladi, oldinga intiladi. Yeru ko`kni chang to`zon bosib ketgan. (Kindik qoni to`kilgan yer hikoyasidan).

O`ktam Usmonov hikoyalarida realizm ustuvorligini, unda hayotning real hodisalari, kishilararo mavjud munosabatlar gavdalantirilib, qahramonlar orzu-havaslari, xayollari manzaralantirilgan o`rinlar bilan birgalikda romantizm ijodiy uslubiga xos sifatlarni ham ko`ramiz.

Hozirgi o`zbek nasri, xususan, hikoyachiligidagi har bir ijodkorning o`ziga xosligini, umuman, badiiy nasr uslubi, muamolarini tahlil etish mavjud va yangi uslubiy izlanishlarni sinchiklab kuzatishni talab etadi. Nasrimizdagi shakliy-uslubiy izlanishlarning nazariy asoslarini izlashda hikoyachiligimizning bugungi qiyofasi va nufuzidan kelib chiqib, adabiy-estetik tajribalarni kuzatish nafaqat bu sohada dadil izlanayotgan adiblarning mahoratini yoritish, balki, muayyan ma`noda hikoyachiligimiz istiqbolini chamalashga ham imkon qadar urinishdir.

Shu asnoda O`ktam Usmonov hikoyalarida ham o`ziga xos teranlik, yuksak mahorat bilan kashf etilgan jumlar, tasvirlar, maqollar, afarizmlar o`rin olgan. Bundan ijodkorning uslubini yuqori pog`onalarda ekanligini bilib olamiz. Lekin O`ktam Usmonov hikoyalarini kamchilikdan holi deb bo`lmaydi. Bizningcha, muallifning hikoyalari Qozoqboy Yo`ldoshev aytganidek, zerikarli, zavq bilan o`qilmaydigan hikoya emas²!

O`ktam Usmonovning “**Maktab derazasi**” hikoyasini o`qib chiqar ekanmiz, sarlavhaga qarab voqealar rivoji aynan maktab xotiralari bilan bog`liq ekanligini anglab olamiz. Hikoya qahramoni yozuvchi tomonidan aynan ta`riflangan bo`lmasada, lekin uning g`amxo`r, sodda, sofdil, qalbi toza, intizomli, og`ir-bosiq, barchani hurmat qiluvchi ekanligini qahramonning harakatlari, ruhiyat kechinmalari, o`y-istaklari orqali bilib olamiz. Bu ham yozuvchining hikoyalarida aks etgan uslublaridan biridir.

Adibning hikoyalarida asosan, urushdan keying yillari qalamga olinganligi uchun ham yozuvchining kelajakka nigohini, orzu-istaklarini, kechinmalarini, qiyinchiliklarni ortda qolishiga umid bog`layotganligini, atrofdagilarni xursand ko`rishni xohlayotganini obrazlarda gavdalantirganiga guvoh bo`lamiz.

² Qozoqboy Yo`ldoshev. “Yoniq so`z”. -T.:2006, 137-138-betlar.

“Maktab derazasi” hikoyasida ham o`tmishdagi qiyinchiliklar butkul yodidan chiqqan, urush zahmatlarini unutgan, davlat mulkini oyoq osti qilgan obrazlarni hamda unga ich-ichidan afsuslangan, davrlar silsilasini bir-biri bilan solishtirgan, kech bo`lsa-da, o`zgalar uning dilini og`ritishlaridan to`g`ri xulosa chiqargan bosh qahramon obrazini ko`ramiz.

Hikoya bosh qahramoni go`zallikni qurbon bo`lishiga zamin hozirlayotgan insonlarni to`g`ri yo`lga boshlamoqchi bo`ladi va shu asnoda o`tmishdagi voqealarni eslaydi. Uning dilini vayron qilgan narsa boshqalar uchun oddiy hol deb ko`ringan oynani sindirish, o`tmishini yodga olishga sabab bo`ldi. Maktab rahbariyati va o`qituvchilari tomonidan Qosimovni maktab derazasini sindirganligi uchun aybdor deb topilgani u uchun qattiq zarba edi. Esini tanibdiki, bunday to`pori ishlar qilmagan, maktabda a`lo baholarga o`qigan, maktab buyumlariga ziyon yetkazishni o`zidan uzoq bilgan Qosimov uchun bunday ayblov eshitish, uning ko`zlaridan masumlik yoshlarining oqishiga sabab bo`lgan. Lekin ma`na shu dashnomlar vaqti kelib Qosimovning bundanda yaxshi inson, o`qimishli injener, ma`suliyatli shaxs bo`lishida katta turtki bo`ldi. Buni u uyi ro`parasida qurilgan yangi binoning oynalari o`zgalar kelajagi, taqdiri uchun befarq kimsalar tomonidan sindirilish voqeasidan keyin anglashildi. Ehtimol, Qosimovga o`sha vaqtlarda noto`g`ri ayblov qo`yilmaganida, balki u ham bir kun kelib o`zgalar so`zini pisand qilmas, davlat mulkini oyoq osti qiluvchi insonga aylanib qolishi mumkin edi.

O`ktam Usmonov hikoyada ikki xil mavzuni o`rtaga tashlash natijasida bizga: inson har doim kattalar so`zidan to`g`ri xulosa chiqarishlari lozim, eng asosiysi uning bu ishda aybi yo`qligi qancha vaqt o`tmasin, baribir aybsiz odam vaqti kelib oqlanadi. Uning vijdoni oldidagi burchi bajariladi. Ikkinchidan, esa har bir inson kelajak avlodni o`ylashi, o`tmishidan dars olishi, tinchlik deb atalmish ne`matni jondek aziz bilishi, davlat mulkiga xiyonat esa jonga xiyonat ekanligini uqdirmoqchi bo`lgan.

O`ktam Usmonov hikoyalari ulkan ma`no ifodalashi bilan birgalikda, ma`naviy-axloqiy masalalarni hal qilib berishda ham muhim ahamiyatga egadir.

O`ktam Usmonov o`zi yaratgan obrazlarning ruhiyatini o`zining ruhiyatidan olib yaratadi desak mubolag`a bo`lmaydi. Chunki, muallif obrazning fe`l-atvoriga xos asosiy xususiyatlarni o`zining xarakteristikasidan oladi. O`ktam Usmonov barcha asarlarini hayotiy voqealar asosida yaratadi va shuning uchun ham muallif xarakteristikasi zamiriga qurilgan obrazlarining badiiy psixologizmi o`quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Ijodkor ongida yetilgan asarning yaratilmasligi mumkin emas. Shunday ekan, O`ktam Usmonov yaratgan asarlarning barchasi uning ongida yetilgan ijod mahsuli va bu esa asarlardagi personajlarning o`quvchilarga yanada yaqinligini ta`minlaydi. Sababi inson ko`ngliga yo`l topishda ruhiyat birinchi vosita sanaladi. O`ktam Usmonov esa aynan ruhiyat masalasini

asarlaridagi birinchi galdagi vazifa deb biladi. Va bunda esa yozuvchining mahorati yaqqol ko`zga tashlanadi.

O`ktam Usmonov hikoyalari so`ngida yoshlarga, har bir kitobxonga xulosa orqali o`git-nasihat beradi. Barchamizni bu o`tkinchi dunyoda ko`zimizni ochib yashashga chaqiradi. Bu chaqiriqlarga e`tibor bermagan insonlar taqdirini ham yaqqol ochib beradi.

O`ktam Usmonov ilgari surgan g`oyalar, asarlaridan ko`zlagan maqsadlar umumbashariy mohiyat kasb etadi. U millat, makon va zamon tushunchalarini yo`qotadi. Ular umumiy lashib, birlashib, yaxlitlashib olam va odam mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Adib tanlagan muammo, mavzu, orzu-armon doim bir insonga tegishli bo`lmay balki ko`pchilikning aurasini tashkil etadi.

Xulosa. O`ktam Usmonov xalqning 50-80-yillardagi hayotini har tomonlama tasvirlashga diqqatini qaratgani sababli ham o`z davri ijodkorlari bilan birgalikda xalq hayotining turli jihatlarini hikoyalarda aks ettirgan. Shu tufayli ham O`ktam Usmonov hikoyalarda aks etgan uslubi bilan ham 50-80-yillar yozuvchilariga qiyoslanadi.

Yozuvchi hikoyalarda notinch dunyo tashvishlari bilan yashayotgan zamondoshlarining his-tuyg`ulari, ularning tinchlik va do`stlik uchun olib borayotgan kurashlari o`z badiiy ifodasini topgan. U o`z asarlarida tabiiylikni, samimiylikni va jozibadorlikni o`rtaga qo`yishida, yangi mavzularni badiiy ifodalashida, yangi fikr aytishga, yangi obraz yaratishga intilishida ham uslubiy o`ziga xoslikni namoyon qilib kelgan.

O`ktam Usmonov o`rni bilan lirik chekinishlar qilib, kitobxonni g`oyaviy-hissiy baholariga qo`shilishga undaydi. Ma`lum ma`noda tasvir predmetiga ham goh oshkora, goh pinhona munosabatini ifodalab, kitobxon bilan bevosita muloqotga kirishadi. Yozuvchining xuddi shunday uslublari doimo hikoyalarda yaqqol aks etadi.

Adabiyotlar:

1. "Jahon adabiyoti" jurnali. 1997-yil, 1-son.- B.192.
2. Tohirov Z. Ijod laboratoriyasi. – T.: Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013.- B. 57.
3. Qozoqboy Yo`ldoshev. " Yoniq so`z". -T.:2006, 137-138-betlar.
4. Dilmurod Quronov. Cho`lpon nasri poetikasi. - Toshkent. Sharq NMK, 2004-yil, 231-bet.